

BACHADON MIOMASINING HOMILADORLIK VA TUG‘RUQ KECHISHIGA TA’SIRI

Muhitdinova Madina Qodirjon qizi

Akusherlik va ginekologiya kafedrası 1-kurs klinik ordinatori

muhitdinova_2000@icloud.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq kechishiga ta’siri chuqur o‘rganib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bachadon miomasining hajmi, joylashuvi, soni va homiladorlik davridagi o‘shish xususiyatlari homiladorlikning kechishi hamda tug‘ruq jarayonining borishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarda homiladorlikning muddatidan oldin tugashi, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi, yo‘ldosh bilan bog‘liq asoratlari, tug‘ruq faoliyatining sustligi va tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfi ortishi kuzatiladi. Tadqiqot bachadon miomasi mavjud bo‘lgan homilador ayollarni homiladorlikning dastlabki davrlaridan boshlab muntazam ultratovush tekshiruvini va klinik kuzatuv asosida nazorat qilish hamda individual yondashuvni qo‘llash asoratlarni erta aniqlash va ularning oldini olish samaradorligini yanada oshirishini ko‘rsatadi. Homiladorlik va tug‘ruq jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, akusher-ginekolog tomonidan muntazam nazorat olib borish hamda tug‘ruq usulini individual ravishda belgilash bachadon miomasi bo‘lgan ayollarda ona va homila salomatligini saqlash, tug‘ruq asoratlarni kamaytirish va perinatal natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Bachadon miomasi, Homiladorlik, Tug‘ruq, Akusherlik asoratlari, Mioma tugunlari, Homila holati, Yo‘ldosh, Tug‘ruq faoliyati, Qon ketish, Ultrasonografiya, Individual yondashuv.*

THE IMPACT OF UTERINE FIBROIDS ON THE COURSE OF PREGNANCY AND CHILDBIRTH

Abstract. *This article deeply examines the impact of uterine fibroids on the course of pregnancy and childbirth. The results of the study show that the size, location, number, and growth characteristics of uterine fibroids during pregnancy significantly affect the course of pregnancy and the process of childbirth. At the same time, pregnant women with uterine fibroids demonstrate an increased risk of preterm delivery, abnormal fetal presentation, placental complications, weak labor activity, and postpartum hemorrhage. The study demonstrates that monitoring pregnant women with uterine fibroids from the early stages of*

pregnancy through regular ultrasound examinations and clinical follow-up, as well as applying an individualized approach, further increases the effectiveness of early detection and prevention of complications. Proper planning of pregnancy and childbirth, regular supervision by an obstetrician-gynecologist, and individual determination of the mode of delivery contribute to preserving maternal and fetal health, reducing obstetric complications, and improving perinatal outcomes in women with uterine fibroids.

Keywords: *Uterine fibroids, Pregnancy, Childbirth, Obstetric complications, Fibroid nodules, Fetal condition, Placenta, Labor activity, Hemorrhage, Ultrasonography, Individualized approach.*

ВЛИЯНИЕ МИОМЫ МАТКИ НА ТЕЧЕНИЕ БЕРЕМЕННОСТИ И РОДОВ

Аннотация. *В данной статье подробно изучено влияние миомы матки на течение беременности и родов. Результаты исследования показали, что размер, локализация, количество миоматозных узлов и особенности их роста во время беременности оказывают значительное влияние на течение беременности и процесс родов. Вместе с тем у беременных женщин с миомой матки отмечается повышенный риск преждевременного завершения беременности, неправильного положения плода, осложнений, связанных с плацентой, слабости родовой деятельности и послеродового кровотечения. Исследование показывает, что наблюдение за беременными женщинами с миомой матки с ранних сроков беременности на основе регулярного ультразвукового исследования и клинического контроля, а также применение индивидуального подхода значительно повышают эффективность раннего выявления и профилактики осложнений. Правильное планирование беременности и родов, регулярное наблюдение акушером-гинекологом и индивидуальное определение метода родоразрешения способствуют сохранению здоровья матери и плода, снижению акушерских осложнений и улучшению перинатальных исходов у женщин с миомой матки.*

Ключевые слова: *Миома матки, Беременность, Роды, Акушерские осложнения, Миоматозные узлы, Состояние плода, Плацента, Родовая деятельность, Кровотечение, Ультразвуковое исследование, Индивидуальный подход.*

KIRISH

Bugungi kunda bachadon miomasi reproduktiv yoshdagi ayollar orasida ko'p uchraydigan ginekologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Bachadon miomasi bachadon mushak qavatidan rivojlanadigan yaxshi sifatli o'sma bo'lib, uning mavjudligi ayolning reproduktiv salomatligi,

homiladorlikning kechishi va tug‘ruq jarayoniga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, mioma tugunlarining hajmi, soni va joylashuvi homiladorlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarni o‘z vaqtida aniqlash, muntazam kuzatish va homiladorlik hamda tug‘ruqni to‘g‘ri rejalashtirish akusherlik amaliyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bachadon miomasi mavjud bo‘lgan homilador ayollarda qorin pastidagi og‘riq, bachadon tonusining oshishi, homiladorlikning muddatidan oldin tugashi, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi va yo‘ldosh bilan bog‘liq asoratlarni kuzatilishi mumkin. Tug‘ruq jarayonida esa tug‘ruq faoliyatining sustligi, homilaning tug‘ruq yo‘llaridan o‘tishida qiyinchiliklar hamda tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfi ortishi mumkin. Biroq miomaning mavjudligi har doim ham homiladorlik yoki tug‘ruqning patologik kechishini anglatmaydi. Muntazam ultratovush tekshiruvi, klinik kuzatuv va individual akusherlik yondashuvi orqali ehtimoliy asoratlarning oldini olish mumkin. Mazkur maqolada bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq jarayoniga ta’siri, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarni hamda ularni erta aniqlash va oldini olish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Dolzarbligi

Bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarda homiladorlik va tug‘ruq jarayonining asoratsiz kechishini ta’minlash akusherlik amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mioma tugunlarining kattaligi va joylashuvi homiladorlikning kechishi, homilaning rivojlanishi va tug‘ruq jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda ushbu holat homiladorlikning muddatidan oldin tugashi, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi, tug‘ruq faoliyatining sustligi yoki tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfini oshiradi. Zamonaviy ultratovush diagnostikasi, klinik monitoring va individual akusherlik taktikasidan foydalanish bachadon miomasi bilan bog‘liq xavflarni o‘z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi. Shu sababli bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq kechishiga ta’sirini o‘rganish bugungi akusherlik-ginekologiya amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Maqsadi

Maqolaning asosiy maqsadi bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq kechishiga ta’sirini o‘rganish, mioma tugunlarining hajmi va joylashuvi bilan bog‘liq akusherlik asoratlarni aniqlash, ularni erta tashxislash va oldini olish yo‘llarini belgilash hamda bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarni kuzatish va tug‘ruqni olib borish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA USULLAR


Bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq kechishiga ta’sirini o‘rganishda klinik va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy baholash hamda statistik ma’lumotlarni

umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda bachadon miomasining hajmi, joylashuvi va mavjudligi bilan homiladorlik hamda tug‘ruq jarayonida kuzatiladigan asoratlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Ayniqsa, muddatidan oldin tug‘ruq, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi, kesarcha kesish, yo‘ldosh bilan bog‘liq asoratlar va tug‘ruqdan keyingi qon ketish ko‘rsatkichlariga alohida e‘tibor qaratildi. Tadqiqot uchun PubMed, MEDLINE, Embase, Cochrane, Scopus va Web of Science ma‘lumotlar bazalarida e‘lon qilingan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bachadon miomasi bo‘lgan va miomasi bo‘lmagan homilador ayollarning homiladorlik hamda tug‘ruq natijalari qiyoslandi. 2024-yilda o‘tkazilgan meta-tahlilda 24 ta tadqiqot va jami 237 509 nafar ishtirokchining ma‘lumotlari umumlashtirilgan bo‘lib, unda bachadon miomasi mavjudligi muddatidan oldin tug‘ruq, kesarcha kesish, yo‘ldosh oldinda joylashishi, yo‘ldoshning muddatidan oldin ko‘chishi va tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfining oshishi bilan bog‘liqligi aniqlangan⁷³. Homiladorlik natijalarini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanildi: homiladorlikning muddatiga yetib borishi, muddatidan oldin tug‘ruq holatlari, homilaning noto‘g‘ri yoki chanoq bilan joylashuvi, tug‘ruq usuli, yo‘ldosh bilan bog‘liq asoratlar va tug‘ruqdan keyingi qon ketish holatlari. Shuningdek, mioma tugunlarining kattaligi va joylashuvi ushbu ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida baholandi. Tadqiqotlarda mioma tugunlarining, ayniqsa, 5 sm va undan katta bo‘lishi ayrim akusherlik asoratlari, jumladan chanoq bilan kelish, yo‘ldosh oldinda joylashishi va tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfi bilan ko‘proq bog‘liqligi ko‘rsatilgan.


Muddatidan oldin tug‘ruq ko‘rsatkichlarini o‘rganishda 11 ta tadqiqotning 256 650 ta yakka homiladorlik bo‘yicha natijalari ham tahlil qilingan. Bachadon miomasi bo‘lgan ayollarda 37 haftagacha bo‘lgan muddatidan oldin tug‘ruq ko‘rsatkichi 11,6%, miomasi bo‘lmagan ayollarda esa 9,0% ni tashkil etgan. Mazkur natijalar bachadon miomasi mavjud homilador ayollarda homiladorlikni yanada sinchkovlik bilan kuzatish zarurligini ko‘rsatadi⁷⁴.

⁷³ Shukurov F.I., Nigmatova G.M. Akusherlik va ginekologiya. Darslik. - Toshkent, 2022. - B. 330-335.

⁷⁴ Xusanxodjayeva M.T. Reproktiv yoshdagi ayollarda homiladorlik va homilasi bo‘lmagan davrlarda bachadon miomasi davosining jarrohlik tamoyillari. Tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. - B. 3-23.



1-diagramma. Bachadon miomasi mavjud va mavjud bo'lmagan ayollarda muddatidan oldin tug'ruq ko'rsatkichi



2-diagramma. Bachadon miomasi bo‘lgan va bo‘lmagan ayollarda tug‘ruqdan keyingi qon ketish ko‘rsatkichi

⇒ Shifokorlar uchun amaliy tavsiyalar

Bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarni kuzatishda quyidagi yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Homiladorlikning dastlabki davridan boshlab ultratovush tekshiruvini muntazam o‘tkazish – mioma tugunlarining soni, hajmi va joylashuvini baholash.

2. Mioma tugunlarining o‘rish dinamikasini kuzatish – ayniqsa 5 sm va undan katta tugunlar mavjud bo‘lganda homiladorlik va tug‘ruq xavflarini individual baholash⁷⁵.

3. Homilaning joylashuvini muntazam nazorat qilish – katta yoki bachadon bo‘shlig‘iga yaqin joylashgan mioma tugunlari homilaning noto‘g‘ri joylashuviga sabab bo‘lishi mumkin.

4. Muddatidan oldin tug‘ruq xavfini baholash – bachadon miomasi bo‘lgan ayollarda 37 haftagacha bo‘lgan tug‘ruq xavfi yuqoriroq ekanligi sababli klinik kuzatuvni kuchaytirish⁷⁶.

5. Tug‘ruq usulini individual belgilash – miomaning joylashuvi, kattaligi, homilaning holati va boshqa akusherlik omillari hisobga olinishi lozim.

6. Tug‘ruqdan keyingi qon ketish xavfiga tayyor turish – bachadon miomasi bo‘lgan ayollarda qon ketish xavfi yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi sababli tug‘ruq jarayonida tegishli monitoringni ta’minlash.[1.-B.2]

7. Har bir bemorga individual yondashish – bachadon miomasi mavjudligi o‘z-o‘zidan homiladorlik yoki tug‘ruq albatta asoratli kechishini anglatmaydi; xavf miomaning xususiyatlari va boshqa klinik omillar bilan birgalikda baholanishi kerak.

8. Ushbu yondashuvlar bachadon miomasi bo‘lgan homilador ayollarni xavfsiz kuzatish, ehtimoliy akusherlik asoratlari erta aniqlash va tug‘ruq jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bachadon miomasi homiladorlik va tug‘ruq jarayonining kechishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Mioma tugunlarining hajmi, soni va joylashuviga qarab homiladorlikning muddatidan oldin tugashi, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi va yo‘ldosh bilan bog‘liq asoratlarni kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, katta hajmdagi yoki bachadon bo‘shlig‘iga yaqin joylashgan mioma tugunlari mavjud bo‘lgan ayollarda bunday xavflar yuqoriroq bo‘ladi. Shu sababli homiladorlik davrida muntazam tibbiy nazorat va individual akusherlik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi⁷⁷. Bachadon miomasi

⁷⁵ Xo‘jamberdiyeva Y.N. Ayollarda ko‘p uchraydigan mioma kasalligi, sabablari, davosi. *Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnali*, 28-son, 2-to‘plam. -2023. - B. 6-7.

⁷⁶ Nigmatova Sh.B. Bachadon miomasi. *Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*. -2025. - B. 334-335.

⁷⁷ Xo‘jamberdiyeva Y.N. Ayollarda ko‘p uchraydigan mioma kasalligi, sabablari, davosi. - 2023. - B. 6-7.

bo‘lgan homilador ayollarda tug‘ruq jarayonida ham ayrim asoratlarni kuzatilishi mumkin. Mioma tugunlari bachadon qisqarish faoliyatiga ta’sir qilib, tug‘ruq faoliyatining sustligi yoki tug‘ruq jarayonining cho‘zilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi tufayli ayrim holatlarda kesarcha kesish orqali tug‘ruqni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Tug‘ruqdan keyingi davrda esa bachadon qisqarishining yetarli bo‘lmasligi natijasida qon ketish xavfi ortishi mumkin.

Bachadon miomasining mavjudligi har doim ham homiladorlik va tug‘ruqning asoratli kechishini anglatmaydi. Mioma tugunlari kichik hajmda bo‘lib, bachadon bo‘shlig‘ini deformatsiya qilmagan hollarda homiladorlik nisbatan me’yorida kechishi mumkin. Muntazam ultratovush tekshiruvi, mioma tugunlarining o‘rish dinamikasini kuzatish va akusher-ginekolog tomonidan individual nazorat olib borilishi ehtimoliy asoratlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi⁷⁸. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruqqa ta’siri asosan mioma tugunlarining hajmi, soni va joylashuvi bilan bog‘liq bo‘ladi. Homiladorlikni muntazam nazorat qilish, ultratovush diagnostikasidan foydalanish va tug‘ruq taktikasini individual belgilash ona va homila salomatligini saqlash hamda ehtimoliy asoratlarni kamaytirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ruq kechishiga ta’siri ona va homila salomatligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan akusherlik muammolaridan biridir. Tadqiqot natijalari mioma tugunlarining hajmi, soni va joylashuviga qarab homiladorlikning muddatidan oldin tugashi, homilaning noto‘g‘ri joylashuvi, tug‘ruq faoliyatining sustligi va tug‘ruqdan keyingi qon ketish kabi asoratlarni xavfi ortishini ko‘rsatdi. Homiladorlik davrida muntazam ultratovush tekshiruvi, klinik kuzatuv va individual akusherlik yondashuvi ehtimoliy asoratlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularning oldini olishga yordam beradi. Akusher-ginekolog tomonidan homiladorlikni to‘g‘ri rejalashtirish va tug‘ruq usulini individual belgilash orqali bachadon miomasi bo‘lgan ayollarda ona va homila salomatligini saqlash hamda perinatal natijalarni yaxshilash mumkin. Shu bois, bachadon miomasi mavjud bo‘lgan homilador ayollarni muntazam nazorat qilish va tug‘ruq jarayonini individual ravishda rejalashtirish alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shukurov F.I., Nigmatova G.M. Akusherlik va ginekologiya. Darslik. - Toshkent, 2022. - B. 330-335.

⁷⁸ Shukurov F.I., Nigmatova G.M. *Akusherlik va ginekologiya*. Darslik. - Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2022. -B. 330-335.

2. Xusanxodjayeva M.T. Reproktiv yoshdagi ayollarda homiladorlik va homilasi bo‘lmagan davrlarda bachadon miomasi davosining jarrohlik tamoyillari. Tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2018. - B. 3-23.

3. Xo‘jamberdiyeva Y.N. Ayollarda ko‘p uchraydigan mioma kasalligi, sabablari, davosi. Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnali, 28-son, 2-to‘plam. -2023. - B. 6-7.

4. Nigmatova Sh.B. Bachadon miomasi. Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. - 2025. - B. 334-335.

5. Muratova N.D., Miralimova N.A. Bachadon miomasining homiladorlik va tug‘ish natijalariga ta’siri. Reproktiv salomatlik va uro-nefrologik tadqiqotlar jurnali, 2022, №4. - B. 58-60. [Maqolaning Samarqand davlat tibbiyot universitetidagi sahifasi](#)

6. Bachadon miomasi. O‘zbekcha Vikipediya. - Internet manbasi. O‘zbekcha Vikipediya

7. Akusherlik va ginekologiya bo‘yicha elektron kutubxona materiali. Toshkent davlat stomatologiya instituti elektron kutubxonasi. [Elektron kutubxona](#)